

BARCHASI SHU YERDAN VA SHU ONDAN BOSHLANADI

UNIVERSITET
GAZETASI
7 -son
Gazeta ichida gazeta

TA'LIM ZIYOSI

MEN UNIVERSITET KUTUBXONASINI YANGI FORMATDAGI ILMIY, TA'LIMiy, MADANIY VA MA'RIFIY MARKAZ SIFATIDA KO'RAMAN



Kutubxona har bir universitetning ajralmas qismi. Ta'lim muassasasi bilan birga u ham rivojlanadi, o'zgaradi va universitetdagi umumiy jarayonlarga tobora faol integratsiyalashib boradi. Xo'sh, bugun oliy ta'lim muassasasi rahbariyati kutubxonadan nimalarni kutmoqda? Kutubxona universitetning asosiy axborot markaziga, ta'lim jarayoni uchun eng zamonaviy texnologiya va vositalar jamlangan maskanga aylana oladimi?

Bu haqda Chirchiq davlat pedagogika universiteti prorektori Doniyor Ahmadjanov bilan suhbatlashdik.

– Ustoz, universitet kutubxonalarning bugungi holati va kelajagi bilan bog'liq masalalarni muhokamasiga qilish uchun vaqt ajratganingiz uchun tashakkur. Prorektorning bu mavzuga oid fikr va qarashlari nafaqat professor-o'qituvchilar, balki talabalar uchun ham muhim va foydali, deb o'ylaymiz.

– Bugun kutubxonaning universitetda ko'p funksiyali axborot, ilmiy va ta'limiy markaz sifatidagi faoliyatini yangi sifat bosqichida davom ettirish masalasi har qachongidan ham dolzarb.

Siz ko'targan masala barcha universitetlarda muhim muammolardan biri hisoblanadi. Oliy ta'lim muassasalaridagi kutubxona majmualari, odatda, katta hududlarni egallaydi. Shuning uchun universitetda talabalarni joylashtirish yoki turli faoliyat turlari uchun qo'shimcha maydonlarga ehtiyoj tug'ilganda, tabiiyki, kutubxona binolariga ham e'tibor qaratiladi.

Avvallari birorta ham talaba kutubxonasiz imtihon, sinov yoki kurs ishiga tayyorlana olmasdi. Axborotni boshqa manbalardan topish imkoniyati deyarli yo'q edi. Universitetimiz rektori kutubxonani universitetning eng katta boyligi, bugungi til bilan aytganda, oliy ta'lim muassasasining asosiy "qaynoq nuqtasi", deb biladi. U yer doimo talabalar bilan gavjum. Universitetga kelgan mehmonlarni albatta kutubxona faoliyati bilan tanishtirish an'anaga kirgan.

Bugun Chirchiq davlat pedagogika universitetining



Axborot resurs markazida 6 ta abonement, 6 ta o'quv zali va 6 ta elektron o'quv zallari mavjud. Ular orqali minglab ilmiy hujjatdan foydalanish imkoniyati yaratilgan. Fondning faol qismi raqamli shaklga o'tkazilgan, talabalarimizning aksariyati esa internet manbalaridan xohlaganlaricha foydalanishadi.

Shuning uchun bugun kutubxonaning universitetda ko'p funksiyali axborot, ilmiy va ta'limiy markaz sifatida qanday faoliyat yuritishi, uning yangi sifat bosqichiga qanday ko'tarilishi, masalasi har qachongidan ham dolzarb.

– Bugun ko'plab universitetlar transformatsiya jarayonini boshdan kechirmoqda. Universitetning ajralmas qismi bo'lgan kutubxona ham bu jarayondan chetda qololmaydi. Sizningcha, kutubxonaning yangi funksiyalarni o'zlashtirishi, oddiy tarkibiy bo'linma emas, balki universitet rivojining faol ishtirokchisiga aylanishi uchun salohiyati yetarli?

– Bu masalani kutubxona faoliyatiga mas'ullar bilan uzoq muhokama qildik, ammo yakuniy qaror hali qabul qilingani yo'q. Sizga birinchi bo'lib o'z fikrimni aytishim mumkin, kutubxona formati va faoliyatini tubdan qayta ko'rib chiqish harakatidamiz.

4

Bilimga eltuvchi yo'llar turlicha, ammo ularning eng ishonchlisi – mutolaa, izlanish va tafakkur uyg'unligidir.

**Salomat
MAMAQULOVA,
Axborot resurs
markazi Elektron
kutubxonalar bo'limi
mudiri**



Kutubxona madaniyatini faqat sukut saqlash yoki kitoblarni ehtiyojkorlik bilan asrash bilan cheklab bo'lmaydi. Bu tushuncha talabaning ichki intizomi, muomala madaniyati, vaqtga munosabati, tashqi ko'rinishi, raqamli qurilmalardan foydalanish odobi, axborot bilan ishlash mas'uliyati va intellektual mehnatga bo'lgan hurmatini qamrab oladi.

Kitobni o'z vaqtida qaytarish, undan ehtiyojkorlik bilan foydalanish, boshqa foydalanuvchilar uchun zarur bo'lgan resursni asrash – oddiy kutubxona qoidasidek tuyulishi mumkin. Ammo aynan shu oddiy harakatlar shaxsda mas'uliyat, intizom va jamoat manfaatiga hurmat kabi muhim fazilatlarni shakllantiradi.

Shuning uchun

universitet kutubxonasidagi muhitni yaratish faqat kutubxona xodimlarining vazifasi emas. Bu jarayonda talaba, professor-o'qituvchi, tadqiqotchi va kutubxona mutaxassisi birdek mas'ul. Har bir foydalanuvchining madaniyati umumiy muhitga ta'sir ko'rsatadi. Bugun universitetlar raqobatbardosh, mustaqil fikrlaydigan va keng dunyoqarashga ega mutaxassislarni tayyorlashga intilayotgan bir sharoitda kutubxona madaniyatiga bo'lgan munosabat ham ta'lim sifatining muhim ko'rsatkichlaridan biriga aylanmoqda.

Kutubxona inson o'zini tinglashni, boshqalarni hurmat qilishni, savol berishni, izlanishni, fikrlashni va bilimni qadrlashni o'rganadigan muhitdir.

**Surayyo
MAMATOVA,
Axborot resurs
markazi xodimasi**



Men abonement bo'limida ishlayman. Kutubxonachi sifatidagi asosiy vazifam – kitobxonlarga zarur axborotni tez va sifatli topib berish. O'zimni ulkan bilimlar olamida foydalanuvchilarga an'anaviy va elektron resurslar orasida to'g'ri yo'nalish topishga yordam beradigan navigatorga qiyoslayman.

Bugun yoshlarning kitob o'qishga qiziqishi pasayib, ijtimoiy tarmoqlar va gadgetlarga bo'lgan talabi ortib bormoqda. Shuning uchun kitob mutolaasini targ'ib qilishda turli usullardan foydalanaman: ko'rgazmalar,

tadbirlar, mualliflar bilan uchrashuvlar va mavzuli kechalar tashkil etaman. Talabalar bilan ishlab zavqlanaman.

Zamonaviy texnik vositalar va elektron resurslar bilan ishlash ko'nikmalarim bilan faoliyatim yanada samarali kechadi. Kitobxonlarni elektron kutubxonalar bilan tanishtiraman.

Bu kasb meni doimo o'z ustimda ishlashga, yangi bilimlarni egallashga va zamon bilan hamnafas bo'lishga undaydi.

**Oishaxon
ARABBAYEVA,
Xorijiy til va
adabiyoti ta'lim
yo'nalishi,
1-bosqich talabasi**



Nega kutubxonaga borish kerak?

“Agar Internetda istagan ma'lumotni topish mumkin bo'lsa, nima uchun kutubxonaga borish kerak? Uyda yoki kafeda o'tirish kutubxonaga borishdan ko'ra ancha qulay-ku!” Bugungi yoshlarning aksariyatidan shunga o'xshash javobni eshitish mumkin. Men ham bundan mustasno emasdim.

Ammo 1-bosqichga qabul qilinib, CHDPU kutubxonasiga borganimda fikrim butunlay o'zgardi. Men kutubxonani yangidan kashf

etgandek bo'ldim.

Zamonaviy kutubxona allaqachon oddiy kitob saqlanadigan joy emas. U tez o'zgarib borayotgan zamonaviy talabalar ehtiyojlariga moslashadigan, dinamik va ko'p funksiyali makonga aylanganligini angladim.

Nafaqat kitoblar, balki kutubxona xodimlarining mehnati haqida ham yangi ma'lumotlarga ega bo'ldim.

MEN UNIVERSITET KUTUBXONASINI YANGI FORMATDAGI ILMIY, TA'LIMiy, MADANIY VA MA'RIFIY MARKAZ SIFATIDA KO'RAMAN

(Davomi. Boshi 3-betda.)

Universitetimiz mazmun jihatidan ham o'zgarmoqda. O'tgan o'quv yilining o'zida bir qator strategik loyihalarni boshladik. Masalan, "Kelajak o'qituvchisi", "Ta'lim muhiti", "Faol talaba" kabi loyihalarimiz talabalar manfaatiga xizmat qilmoqda.

Universitetimizning "O'zbekiston – 2030" strategiyasi va "Yoshlar uchun ming kitob" loyihasida ishtirok etishi hatto an'anaviy fakultetlar va ta'lim yo'nalishlarini ham yangi formatga o'tkazish imkonini berdi. Kutubxonani ham qayta tashkil etish, unda ishlash va rivojlanish uchun yangi, zamonaviy sharoitlar yaratish kerak.

Ikki yil muqaddam Indoneziyaning Pedagogika universitetiga borgan edim. Ularda katta kompus bo'lib, uning markazida kutubxona joylashgan ekan. Bizni ham taklif qilishdi. Kutubxonaga kirganimda, u yerdan ketgim kelmadi.

Kutubxona binosida talabalar uchun barcha sharoit mujassam edi: obod hudud, zamonaviy interyer, har bir kishi uchun alohida va zarur jihozlar bilan ta'minlangan ish joylari. Bir nechta katta zallar talabalar bilan to'la. Ko'plab talabalar esa bo'sh joy paydo bo'lishini kutib, hatto zinapoyalarning o'zida kitob o'qib o'tirishar edi.

Mana shu – universitetning haqiqiy axborot markazi bo'lgan kutubxona. Biz ham ana shunday formatga intilyapmiz.

– **Zamonaviy kutubxonalar kitob saqlanadigan joydan ilmiy markazgacha bo'lgan jarayonni o'tamoqda, individuallashtirilgan ta'limni tashkil etishda ishtirok etmoqda, professor-o'qituvchilarga uslubiy yordam ko'rsatmoqda. Bu jarayon transformatsiya allaqachon boshlanganidan dalolat emasmi?**



– Biz ham bu yo'nalishlarda ish olib boramiz. Professor-o'qituvchilarning nashriyot ishlari bilan shug'ullanadigan, olimlarimiz tomonidan chop etilgan barcha maqolalarni kuzatib boradigan, ularning ilmiy faolligi reytinglarini shakllantiradigan mutaxassislarimiz bor.

Kutubxona majmuasi fan doktorligi talabgorlariga ularning qancha ilmiy ishi borligi va qaysi nashrlarda maqolalari chop etilgani haqida ma'lumotnoma taqdim etadi. Menimcha, kelajakda bu funksiyalarni yanada kengaytirish zarur.

Ta'limni individuallashtirish masalasiga kelsak, bugun ko'pchilik individual ta'lim trayektoriyalari haqida gapirayotgan bo'lsa-da, ko'p hollarda bu tushuncha faqat so'zda qolib ketmoqda. Kutubxona ushbu jarayonga qo'shilib, masalan, talabalar va magistrantlar uchun individual vazifalarni shakllantirishda shaxsiy maslahat va yordam berishi mumkin.

"Universitet kutubxonasining istiqbollari haqida

so'z yuritar ekanman, u bugungi tushunchadagi oddiy kutubxonadan ancha katta va keng qamrovli tuzilmaga aylanadi".

– **Kutubxonaning universitetda ijtimoiy, ma'rifiy va madaniy makonni tashkil etish borasidagi imkoniyatlari qanday o'zgarishi mumkin? U nafaqat axborot markazi, balki universitetning uchinchi missiyasini amalga oshirish markaziga ham aylanishi mumkinmi?**

– Uchinchi missiya deganda, jamiyat rivojiga bevosita xizmat qilish vazifasini nazarda tutyapsizmi... Ayni kunlarda zamonaviy universitetlarning 3 missiyasi: ta'lim, ilmiy-tadqiqot, milliy taraqqiyotiga ta'siri ko'proq tilga olinyapti. Bilasizmi, universitet kutubxonasining istiqbollari haqida fikr yuritar ekanman, hudud taraqqiyotida o'z o'rni va so'zi bo'lishi kerakligiga shubha qilmayman. Har qanday holatda ham, o'z mohiyatiga ko'ra, u nafaqat universitetning, balki shaharning madaniy markazi bo'lishi shart.

Rivojlanish dasturimizda hudud va shaharning madaniy-ma'rifiy hayoti bilan qanday uyg'unlashtirish masalasi ham kun tartibida va shu o'rinda kutubxona universitetdagi boshqa tarkibiy tuzilmalar bilan birgalikda ushbu missiyani o'z zimmasiga olishi mumkin va olishi kerak.

– **Biz kelajak kutubxonasi haqida gapirar ekanmiz, unda ko'plab funksiyalar mujassam bo'lishini nazarda tutyapmiz. Bunday yangi, qayta formatlangan tuzilma uchun yangi kompetensiyalarga ega mutaxassislar zarur bo'ladi. Sizningcha, ertangi kun kutubxonachisi qanday mutaxassis bo'lishi kerak?**

– Bu yerda turli yo'nalishdagi mutaxassislar faoliyat yuritadi. Bizga IT mutaxassislari, psixologik-pedagogik ma'lumotga ega ekspertlar, turli seksiya va to'garaklarni tashkil etish bo'yicha mutaxassislar kerak bo'ladi.

Eng muhimi esa – talabalar bilan muloqot qilishni biladigan va bundan zavq oladigan, tezkor, tashabbuskor, qiziqarli xodimlar zarur. Universitet Axborot resurs markazida shunday mutaxassislar yetarli.

Biroq bosma shaklidagi kitob fondlari, jumladan, mumtoz asarlar va noyob nashrlar saqlanib qolinadi. Bu – universitetning hech qachon yo'qolib ketmasligi kerak bo'lgan boyligi.

Shunday qilib, umuman olganda, men universitet kutubxonasini yangi formatdagi ilmiy, ta'limiy, madaniy va ma'rifiy markaz sifatida ko'raman.

Go'zaloy ABDUMANNPOVA,
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi
suhbatlashdi

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimida yuz berayotgan yangilanishlar ta'lim jarayonining barcha bo'g'inlariga zamonaviy yondashuvlarni joriy etishni talab etmoqda. Bu jarayonda universitet kutubxonalarning o'rni ham tobora kengayib, ular oddiy kitob saqlanadigan maskandan talabalar, professor-o'qituvchilar va tadqiqotchilar uchun zamonaviy axborot, ilmiy izlanish va intellektual muloqot maydoniga aylanmoqda.

Kutubxonalarni yangilash va rivojlantirish strategiyasi haqida so'z yuritganda, universitet kutubxonalarning mas'ul xodimlari mavjud ta'lim an'alaridan voz kechishni emas, ularni zamonaviy talabalar asosida boyitish va kengaytirishni maqsad qiladilar.

Akademik kutubxonalar uzoq yillar davomida talaba va professor-o'qituvchilarni

markaz faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biridir. Xususan, 2025–2026-yillarda 44 ming 534 ta yangi adabiyot kelib tushgan. Bu raqam kutubxona fondining zamon talablari asosida yangilanib, ta'lim yo'nalishlari va foydalanuvchilar ehtiyojiga mos manbalar bilan to'ldirilayotganini ko'rsatadi.

Axborot-resurs markazida kitobxonlar uchun 6 ta o'quv zali tashkil etilgan. Ushbu zallarda talabalar mustaqil ta'lim olish, darslarga tayyorgarlik ko'rish, ilmiy va ijodiy izlanishlar olib borish imkoniyatiga ega. Markazga bir kunda 1 350 nafardan ortiq kitobxon tashrif buyurayotgani esa uning

uyg'unlashadigan muhitga aylanishi zarur. Ana shunday yondashuv kutubxonaning tarixan shakllangan vazifalarini yangi mazmun bilan boyitib, uni universitet hayotining faol va ochiq ta'lim makoniga aylantirish imkonini beradi.

Darhaqiqat, zamonaviy kutubxona talabaning mustaqil bilim olishi uchun zarur sharoit yaratiladigan, ilmiy izlanishlarga yo'naltiradigan va kitobxonlik madaniyatini shakllantiradigan muhitdir. Bu yerda kitob bilan ishlash jarayoni ta'limning ajralmas qismiga aylanadi. Talaba o'z mutaxassisligi bo'yicha adabiyot izlar ekan, bir vaqtning



Muqaddam XAMIDOVA,
Axborot-resurs markazi rahbari



KUTUBXONA – bilim va tafakkur maskani

zarur axborot bilan ta'minlovchi, avval bosma, keyinchalik esa raqamli manbalarga yo'l ochuvchi muhim maskan sifatida faoliyat yuritib kelgan. Bugungi kunda kutubxonaning mazmun-mohiyati yanada kengayib, uning markazida inson, uning bilim olishi, axborotdan samarali foydalanishi va ta'lim hamjamiyati hayotidagi faol ishtiroki turishi tobora yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Universitet Axborot-resurs markazining bugungi faoliyati ham ushbu yondashuvning amaliy ifodasi deyish mumkin. Markaz fondida jami 187 ming 758 ta adabiyot mavjud bo'lib, ular orasida o'quv, ilmiy, badiiy va turli yo'nalishlarga oid manbalar o'rin olgan. Shuningdek, 5 614 ta xorijiy tillardagi adabiyot talabalarning chet tillarini o'rganishi, xalqaro tajribalar bilan tanishishi va ilmiy izlanishlar olib borishi uchun keng imkoniyat yaratmoqda.

Fondning muntazam ravishda yangi adabiyotlar bilan boyitib borilayotgani ham

universitet ta'lim muhitidagi faol o'rni yaqqol ko'rsatadi.

Kitobxonlarning ehtiyojini qondirishda nafaqat adabiyotlarning umumiy soni, balki ulardan foydalanish ko'lamini ham juda muhim. Markazda bir yil davomida 103 ming 616 ta kitob aylanmasi qayd etilgani talabalar va professor-o'qituvchilarning kutubxona fondidan faol foydalanayotganidan dalolat beradi.

Bugungi talaba uchun axborotga ega bo'lishning o'zi yetarli emas. Kerakli manbani tez topish, uni tahlil qilish, ishonchli axborotni ajratib olish, elektron resurslardan samarali foydalanish ham muhim ko'nikmaga aylanmoqda. Shu jihatdan Axborot-resurs markazida 2 443 ta elektron resursning mavjudligi an'anaviy kitobxonlik bilan raqamli imkoniyatlarning uyg'unlashib borayotganini ko'rsatadi.

Shu nuqtayi nazardan, zamonaviy universitet kutubxonasi ta'lim, madaniyat, ilm-fan va intellektual rivojlanish

o'zida mustaqil fikrlash, tahlil qilish va xulosa chiqarish ko'nikmalarini ham rivojlantiradi.

Axborot-resurs markazining katta fondi, yangi adabiyotlar bilan muntazam boyib borayotgani, xorijiy tillardagi manbalar, elektron resurslar va o'quv zallarining faol ishlashi universitetda ta'lim sifatini qo'llab-quvvatlovchi muhim omillardan biridir. Ayniqsa, bir kunda 1 350 nafardan ortiq kitobxonning markazga tashrif buyurishi talabalar orasida kitob va axborot manbalariga bo'lgan ehtiyoj yuqori ekanini ko'rsatadi.

Bunday muhitda kutubxonachi faoliyati ham yangi mazmun kasb etadi. Bugungi mutaxassis kitob fondini tartibga solish bilan bir qatorda, foydalanuvchiga kerakli axborot manbasini topishda ko'maklashadi, elektron resurslardan foydalanish imkoniyatlarini tushuntiradi, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga hissa qo'shadi.

Shuningdek, kutubxona universitetning ilmiy hayoti bilan uzviy bog'langan

holda rivojlanishi lozim. Ilmiy maqolalar, monografiyalar, o'quv qo'llanmalar, xorijiy adabiyotlar va elektron ma'lumotlar bazalaridan foydalanish imkoniyatining kengayishi talabalar bilan bir qatorda professor-o'qituvchilarning ilmiy faoliyati uchun ham zarur sharoit yaratadi.

Bugun Axborot-resurs markazi raqamlar bilan ifodalangan katta fond ortida turgan mazmun – bilim, izlanish, mutolaa va tafakkur muhitini shakllantirishga intilmoqda. 187 mingdan ortiq bosma adabiyot, minglab xorijiy manbalar va elektron resurslar, har kuni yuzlab kitobxonlarning tashrifi bu maskanning universitet hayotidagi o'rni belgilab bermoqda.

Ushbu qo'shsahifa Chirchiq davlat pedagogika universitetining Axborot xizmati tomonidan tayyorlandi.